**O‘quv dasturi pasporti**

*2025-yil 6-avgustdagi 2-sonli bayonnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiy va farmatsevtika xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtirish kengashi tomonidan tasdiqlangan, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yil sentyabr oyidagi ---- raqamli yo‘nalish xati asosida MMO-322-2025 raqami bilan ro‘yxatga olingan.*

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiy xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/Bo‘lim** | Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish |
| **O‘quv dasturi nomi** | «Tibbiyot sohasida korrupsiyani oldini olish» |
| **Ta’lim turi** | Mavzuli malaka oshirish |
| **Dastur mualliflari** | Asadov D.A., Asadov X.D., Xakimov V.A., Xamrayev A.K., Ag‘zamov A.A., Abbashonova Sh.N. |
| **Siklining umumiy davomiyligi** | 36 kredit |

**Siklda dars beruvchi o‘qituvchilar va trenerlar**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  |  |  |  |  |
| D.m.n, professor Asadov D.A. | d.m.n. professor Rustamova X.Ye. | K.m.n, dotsent Xakimov V.A. | D.m.n, dotsent Xamrayev A.K. | D.m.n,, dotsent Narmuxamedova N.A. |
|  |  |  |  | |
| Katta o‘qituvchi Abduraximova S.B. | Katta o‘qituvchi Aripov T.Yu. | K.m.n, starshiy prepodovatel Agzamov A.A | Assistent Abbasxanova Sh.N | |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish sohasida faoliyat yurituvchi rahbarlarning bilim darajasini oshirish, sog‘liqni saqlash organlari va muassasalarida korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarni keyinchalik amalda qo‘llash va tatbiq etish. |

| | |
|---|---|
| | |
| **Vazifalar** | O‘quv jarayonining tashkil etilishi:<br>Normativ-huquqiy hujjatlar, adabiyotlar va o‘quv materiallari bilan ta’minlangan holda uzluksiz, tizimli, ketma-ket va nazorat qilinadigan o‘quv jarayonini tashkil etish, bu esa o‘quvchilarga o‘quv materialini o‘zlashtirish imkonini beradi.<br>O‘quv maqsadlari bo‘yicha:<br><br>O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tanishtirish;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi UP-5729-sonli Farmoni va uning ijrosiga qabul qilingan normativ hujjatlar bilan tanishtirish;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi UP-6013-sonli Farmoni bilan tanishtirish;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi «Antikorrupsiya ishlarining samaradorligini reyting baholash to‘g‘risida»gi Qarori bilan tanishtirish;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «Davlat boshqaruvida korrupsion xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PP-240-sonli Qarori talablari bilan tanishtirish;<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-iyuldagi «Davlat organlari va tashkilotlari ichki antikorrupsion nazorat bo‘linmalari faoliyatining mustaqilligini va samaradorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PP-147-sonli Qarori talablari bilan tanishtirish;<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining ushbu sohada qabul qilingan qarorlari va bayonnomalarni ijro etish;<br>O‘quvchilarga korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha nazariy bilimlar berish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘maklashish;<br>Davlat dasturi bilan belgilangan tadbirlarni o‘z muassasasida joriy etish bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni ta’minlash;<br>O‘z muassasasi xodimlarining huquqiy ongini va madaniyatini yanada oshirish, jamoada korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini ushbu tadbirlarga keng jalb qilish maqsadida tegishli targ‘ibot-tashviqot, profilaktika va tushuntirish ishlarini olib borish. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar – kontingent** | Sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va muassasalari rahbarlari, shu jumladan respublika ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va boshqa davlat tibbiyot muassasalari, hududiy sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari rahbarlari hamda idoraviy va nodavlat tibbiyot muassasalari rahbar xodimlari; sog‘liqni saqlashni boshqarish organlarining bosh mutaxassislari va boshqa mas’ul xodimlari. |
| **Sikl mazmuni** | 1-modul. Korrupsiya tushunchasi va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.<br>2-modul. Tibbiyot sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishning o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘nalishlari. |

| | 3-modul. Tibbiyot sohasida korrupsion jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. |
|---|---|
| **O‘quv bazalari** | Tibbiy xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi;<br>Hududiy sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va ularga bo‘ysunuvchi davolash-profilaktika muassasalari;<br>Tibbiy xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazining MOODLE platformasi |






TEST BAJARISH


Viloyat SSB
admin
Хакимов Валихан Алика...
Исломова Нил...
Исломова Нилуфар
Соғликни саклаш муассасаларида ходимлар
Ходимлар-шахслар - бу ташкилотнинг энг ракобатбардош бойлиги.
Бойликни яратиш, сақлаш ва кўпайтириш керак.
Ташкилотда инсон ресурсларини (куч-воситаларини) бошқариш бўйича тўлиқ тизим бўлиши керак.
Рахбар шахс психологияси бўйича илмий асосланган билимларга ва ходимларни бошқариш бўйича кўникмаларга эга бўлиши керак.